



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTONDA TARIXIY MANBASHUNOSLIKNING DOLZARB
MASALALARI
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
DASTURI**

*ПРОГРАММА
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИСТОРИЧЕСКОГО
ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ*

*PROGRAM
FOR AN INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
ACTUAL ISSUES OF HISTORICAL SOURCE STUDIES IN UZBEKISTAN*

TOSHKENT – 2024

UO‘K: 930.255:004(063)(575.1)

O‘zbekistonda tarixiy manbashunoslikning dolzarb masalalari [Matn] :
xalqaro ilmiy-amaliy anjumandagi maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2024. – 419 b.

Mazkur to‘plamda 2024-yil 24-aprelda o‘tkazilgan “O‘zbekistonda tarixiy manbashunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumandagi maqolalar o‘rin olgan.

Mas’ul muharrirlar: Ответственный редакторы: Executive Editors:
O. Bo‘riyev t.f.d., Z.B. Rahmonqulova t.f.n., professor

Tahrir hay’ati: Редакционная коллегия: Editorial board:

Z.B. Rahmonqulova
Sh.SH. Choriyev
A.Y. Nazarov
J.X. Adilov
S.A. Hamrayev
E.A. Botirov

Nashrga tayyorlovchilar: Подготовка к печати: Preparing for printing:

A.Y. Nazarov
J.X. Adilov
S.A. Hamrayev

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti Ilmiy kengashining 26.04.2024-yildagi 5-sonli bayonnomasi bilan nashr etishga ruhsat etilgan.

Maqolada keltirilgan ma’lumotlar va mulohazalar uchun mualliflar shaxsan javobgar hisoblanadi.

© **Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**
2024.

- Андреевна Гончарова). /Сборник История и археология Приаралья №2,Нукус,2022. –С.133-136.
- 2.Зильпер Д.Г.,Тургунов Т.А. /П.А.Гончарева. Бухоро зардўзлик санъати. Сўзбоши муаллифлари. Т.: 1986. -Б.5.
- 3.Сидоренко А.И., Артыков А.Р.,Раджабов Р.Р. Золотое шитье Бухары. -Т.: Изд. Литературы и искусства имени Гафура Гуляма. 1981. -С.5.
4. Давлатова С.Т. Амалий этнологияда социологик тадқиқотларнинг визуал усул (метод)ларидан фойдаланиш.Сурхондарё: Илм ва тафаккур.Сурхондарё, 2022 йил, № 1.-Б.11.
- 5.Бухоро хунармандчилиги зебу зарлари. Т.: “O‘zbekiston” ИМИУ, 2017. - Б.14. (Тўплаб нашрга тайёрловчилар, мант муаллифлари: Мавлуда Рахмонова, Азалшоҳ Ҳамраев,Саиджон Ҳамраев).
- 6.Круковская С.М. В мире сокровищ. -Т.: 1964.-С.165-167.

TARIXSHUNOSLIK, ETNOLOGIYA VA MUZEYSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY TADQIQOT USULLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘li,
O‘zR FA Tarix instituti tayanch doktoranti

XORAZMNING ARABLAR TOMONIDAN BOSIB OLINISHI MANBASHUNOSLIGINING ZAMONAVIY TADQIQOT USULLARI

Bugungi kungacha Afrig‘iylar sulolasi tarixi maxsus tadqiq etilmagan. Bunga sabab sifatida sulola tarixiga oid yozma manblarning kamligi, manbalardagi ma’lumotlarning qisqaligi, voqealar tafsilotining keng va batafsil bayon etilmaganligini, shuningdek manblardagi ma’lumotlarning bir-biriga zid kelishini aytish mumkin. Bundan tashqari, yozma manbalarning arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarga qarama-qarshiligi mazkur sulola tarixini tadqiq etishda bir qancha muammo va kamchiliklarni kelirib chiqaradi. Biroq mavjud muammolarga qaramay sulola tarixini tadqiq etish dolzarbdir. Ushbu mavzu o‘zbek davlatchiligi tarixining bir qator masalalarini ochib berishhga, jumladan,

deyarli 700 yil hukmonrlik qilgan sulolaning boshqa xalq va elatlar bilan tashqi aloqlari, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, turli madaniyatlar bilan bir-birlarini boyitish jarayonining o‘zbek davlatchili tarixida muhim va munosib o‘rin tutganligidan dalolat beradi.

Arablarning Xorazmga bosqini asosan quyidagi 4 ta manba orqali tadqiq etilib, bu tadqiqotlar turli davrlardagi tarixiy voqealarni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Har bir manba o‘ziga xos yondashuv va tarixiy kontekstga ega bo‘lib, arablarning Xorazmga bosqinlarini turli nuqtai-nazardan taqdim etadi.

- 1) Belazuriy- Futuh ul-buldon (“Mamlakatlarni fath etish kitobi“)
- 2) Tabariy –“Tarix ar-rusul va-l mulk” (qisqacha “Tarixi Tabariy”)
- 3) Ibn A’sam al-Kufiy –“Kitob al-Futūh”(Fathlar kitobi)
- 4) Beruniy –“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”

Yuqoridagi dastlabki uch tarixchining hikoyalari, ma’lumotlar hajmidagi farqlarga qaramay, manbalarining o‘xshashligi tufayli arablar bosqiniga ijobiy yondashishgan deyish mumkin. Biroq, arab tarixchilari Qutaybaning ikki hujumini aralashtirib, ma’no-mazmun jihatidan bir-biriga zid bo‘lgan voqealarni ham keltirib o‘tishganini ham qayd etish lozim. Beruniyning mazkur masalaga yondashuvi farqli yo‘nalishga ega bo‘lib, uning asarida Qutaybaning Xorazmni zabt etishi haqida emas, balki xorazmliklarning Qutaybaga qarshiliklari yoritilgan. Yuqoridagi manbalarning mazmun va ma’no jihatdan solishtirganda Belozuriy asaridagi Xorazmni bosib olish tafsilotlari Tabariynikiga qaraganda qisqaroq va noaniqroqdir. Ibn A’sam al-Kufiyning asari Belozuriy asaridan kengroq va Tabariyning asariga o‘xshashdir. Beruniy asari yuqoridagi 3 ta muallif asaridan mazmuni va qisqaligi jihatdan keskin farq qiladi[1, 2253-b; 5,1064-b.].

Belozuriyning asarida Xorazmning bosib olish tafsilotlari 3 qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Xorazmshohning zaifligi, uning ukasi Xurzod bilan bo‘lgan nizosi, Xorazmshohning Qutaybadan yordam so‘rashi haqida so‘z boradi. Ikkinchi qismida Qutaybaning Xorazmga yordami va istilosi haqida batafsil ma’lumot berilgan. Birinchi va ikkinchi qismlar Tabariy va ibn A’sam al-Kufiy asaridagi ma’lumotlar bilan mazmunan o‘xshashliklarga ega. Biroq, uchinchi qismida muallif

o'zining yondashuvi va nuqtai-nazarini o'zgartirib, oldingi ikki qismdan keskin farq qiladi. Masalan, dastlabki ikki qismida Xorazmdagi og'ir ahvol, Xorazmshohning yordam so'rashi va Qutaybaning yordami tasvirlangan bo'lsa, uchinchi qismida Qutayba ochko'zlikda ayblanadi. Balozuriy tafsilotining bu qismida xorazmliklar o'z ahdiga sodiq bo'lgan bo'lsalarda Qutayba moddiy manfaatlar yo'lida urush boshlagani keltirilib, muallif tomonidan keskin qoralanadi[3,398-399-b ; 4,20-24-b].

Tabariyning asarida ham Xorazmning arablar tomonidan bosib olish tafsilotlari 3 qismdan iborat bo'lib, Balozuriy asariga qaraganda ma'lumotlar zanjiri uyushiq va izchildir. Biroq, uning tafsilotlarida chalkashlik va uzilishlar mavjud. Xususan, Qutaybaning ukasi bilan shoh Hamjird o'rtasidagi urush muhokamasida yaqqol ko'rinadi. Bu o'rinda Tabariy Hamjirdning shaxsiga, uning Xorazmshoh bilan munosabatlariga umuman oydinlik kiritmaydi. Ahamiyatli jihati shuki, shoh Hamjerd shaxsi boshqa manbalarda ham keltirilmaydi. Tabariy Xorazmning bosib olish tafsilotlarining birinchi qismida Xorazmdagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, Balozuriy ma'lumotlaridan unchalik farq qilmaydi. Ikkinchi qism tafsilotlarida Qutaybaning Xorazmga yurish sabablari, Chag'onning ukasi Hurzodga qarshi yordam so'rashi keltirilgan bo'lsa, uchinchi qismida Qutayba Xorazm va Samarqand aholisini itoatsizlikda ayblab, bu hududlarga qayta hujum qilish sabablarini bayon etilgan[2,780-782-b;6, 24-25-b].

Ibn A'sam al-Kufiy asarida Xorazmni bosib olish tafsilotlari bir-birini to'ldiradigan ikki qismga bo'lingan. Birinchi qism Balozuriy va Tabariy ma'lumotlariga o'xshash bo'lib, asarda yuqoridagi manbalardan ikkita farq – Xorazmshoh nomi va Xorazmshohning 400 ming askar sonidir. Ibn A'sam Xorazmshoh nomini “Jangxon” deb keltirib o'tgan (Tabariyda Chag'on, Beruniyda Askajavar) . Ikkinchi qismi mazmuni va tarixiy ma'lumotlarning miqdori jihatdan Balozuriy va Tabariydan keskin farq qilib, xorazmliklar arablarning sulh shartida ko'rsatilgan itoat qilish shartlarini qabul qilishdan bosh tortganliklari zikr qilinadi. Bundan tashqari, Xorazmning uchta shahri haqida eslatib o'tilgan bo'lib, mintaqaning geografik nomlari ham qayd etilgan. Ibn A'sam al-Kufiyning asari

yuqoridagi ikki manbadan Qutaybaning Xorazmshohga yozgan maktubining qisqacha mazmunini o‘z ichiga olganligi bilan qimmatliroqdir[5,1067-1070-b].

Beruniy asari yuqoridagi qayd etilgan uchta manbadan ma‘lumotlarning ko‘lami va tuzilishi jihatdan farq qiladi. Xususan, Beruniy asarida arablarning Xorazmga yurishi paytida Xorazm hukmodorining nomi Askajamuk sifatida tilga olinib, arablarning Xorazmga ikkinchi yurishi vaqtidagi qilmishlari, vahshiyliklari bayon etilgan. Shu o‘rinda alohida qayd etish kerakki, Beruniy asarining yuqorida ko‘rsatilgan 3 manbadan yana bir farqli xususiyati, Qutaybaning Xorazmni bosib olish tafsilotlari ko‘rsatilmay, xorazmliklarning arablarga qarshi kurashganliklarni aks ettirilgan[7, 124-b].

Arablarning Xorazmga bosiqini haqida to‘liq va ob‘yektiv tasavvurga ega bo‘lish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo‘llash va mavjud masalaga yechim topish mumkin.

- **Asosiy manbalar tahlili:** Belazuriy, Tabariy, Ibn A‘sam al-Kufiy va Beruniy kabi tarixiy manbalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlilini amalga oshirish;

- **Manbalararo voqealar tafsilotini taqqoslash:** Manbalardagi voqealar tafsilotlarini qiyoslash, o‘zaro bir-biriga zid ma‘lumotlarni va o‘xshashliklarni tanqidiy tahlil qilish;

- **Tarixshunoslik tahlili:** Sovet davri va mustaqillik davrining milliy hamda xorijiy tarixshunoslikdagi tadqiqotlarini tanqidiy ko‘rib chiqish, manbalar tahlilidagi zamonaviy yondashuvlar va tadqiqotchilarning mazkur masala yuzasidan fikr-mulohazalari o‘rtasidagi qarama-qarshiligining asosiy sabablari va omillarini aniqlash;

- **Arxeologik tadqiqotlar:** Arxeologik qazishmalar natijalarini manbalarning ma‘lumotlari bilan bog‘lash, (Masalan tangalar, yozuvlar va boshqa madaniy qoldiqlar orqali manbalardagi tarixiy voqealarni tasdiqlash yoki rad etish);

- **Qiyosiy tadqiqotlar:** Xorazmning arab istilolari davridagi vaziyatini boshqa mintaqaviy voqealar va tendensiyalar kontekstida tahlil qilish.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmning arablar tomonidan bosib olinishi haqidagi tarixiy voqealar kompleks va ko‘p qirrali tadqiqotlarni talab qiladi. Mazkur mavzuni

to'liq va ob'yektiv o'rganish uchun asosiy manbalar tahlili, manbalararo voqealar tafsilotlarini taqqoslash, tarixshunoslik tahlili, arxeologik qazishmalar va qiyosiy tadqiqotlar kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish zarur. Bu yondashuvlar, har bir manbaning o'ziga xos yondashuvi va tarixiy kontekstini inobatga olib, arab bosqinlarining turli jihatlarini ochib beradi va Xorazmning o'sha davrdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga ta'sirini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanzada I. Critical Analysis of the Narratives of the Conquest of Khwarezm // Islamic History Studies. Tehran. 2011. 2251-2274 pages.
2. Kara C. Yahyâ b. Zeyd İsyani ve Horasan'daki Etkileri. Cumhuriyet İlahiyat Dergisi. Sivas Cumhuriyet Üniversitesi. –2024. –№24 (2). –767-787 S.
3. Kurat N.A. Kuteybe Bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i Zabtı (Hicrî 93-94-Milâdî 712) // Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Dergisi. –1948. – № 6 (5). –398-399 S.
4. Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm'de yerel yönetim. Harezmşahlar ve etrafındaki dünya. / Ed.O.Bozan, M.Saylik. Bursa. –2024. –20 S.
5. Özbayraktar.A Hârezm'in Müslümanlar tarafından fethi(32-93 /652-712) // DTCTF Dergisi. –2023. – №63(2). –1064-1072 S.
6. Rajapov M. Afrig'iylar sulolasining turk tilli tadqiqotlarda aks etishi // ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2024.– № S/1(4). –23-26-betlar
7. Rajapov M. Beruniyning “Osor ul-boqiya” asari Afrig'iylar davri tarixini o'rganishda muhim manba // Tamaddun Nuri. –2024. –№1(52). –122-125-betlar

Xolmuminov Nurbek Muzaffar o'g'li
Manbashunoslik va arxivshunoslik kafedrası
2-bosqich magistranti

XORAZSHOHLAR DAVLATINING O'RGANILISH TARIXI

Tarixiy manbalar davlat va jamiyatning asl o'tmishini yoritib beruvchi birlamchi hujjat hisoblanadi. Tarixning barhayotligi va manguligi ham shu manbalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Har bir davrdagi manbaning ahamiyatli tomoni

З.Р. Ишанходжаева.	Исторические источники в изучении экономического сотрудничества Узбекистана и России в 1970-1980-е гг.	237
MANBASHUNOSLIK VA MAXSUS TARIXIY FANLAR NAZARIYASI HAMDA AMALIYOTI MAHALLIY VA XORIJIY OLIMLAR NUQTAI NAZARIDA		
Т.С. Нуридинова, Д.П. Темирходжаев, З.К. Азимова.	Нумизматические находки из археологического памятника городища Кендыктепа.	245
D.X. Sangirova.	Epistolografiya: tarixiy maktublar manba sifatida.	252
D.X. Axmedova.	Maxsus tarixiy fanlar: maktubga chekilgan muhrlar.	258
N. Narzullayeva.	Mardikuragi o'ldiruv atamasi xususida (tarixiy hujjatlar misolida).	265
Ж.А. Таштанов, С.Е. Жанболатов (Казахстан).	Операция «Суфий», проведенной НКВД – на Сайрамском регионе (на основе архивных документов).	268
К.Д. Саипова.	Международные научные центры по изучению проблем национальных меньшинств.	273
К.М. Константиновна (Беларусь).	Проблемы источниковедения вопросов гражданско-патриотического воспитания 1860-1890-е гг.	279
С.Е. Жанболатов, С. Анар, Б. Мыктыбек (Казахстан).	Использование документальных материалов и мнений выдающихся казахских деятелей в преподавании истории.	283
К.А. Алиев (Казахстан).	Советская депортационная политика в Мактаральском регионе (на основе архивных источников).	288
ZAMONAVIY ARXIVSHUNOSLIK MASALALARI		
Г.Н. Ланской. (Россия)	Актуальные проблемы архивоведения и источниковедения изобразительных документов.	296
Б.Э. Эргашев.	Туркистон генерал-губернаторлиги маҳкамасининг иш юритиш хужжатлари тарихий манба сифатида.	305
A.Y. Nazarov.	Raqamli arxiv manbalarning tarixiy ahamiyati.	309
E.A. Botirov.	BXSR bojxona tizimida kadrlar faoliyati (Buxoro viloyati davlat arxivi hujjatlari misolida).	314
В.Г. Иофе.	О личных фондах в архивах Узбекистана.	320
Z.A. Saidova.	Arxiv hujjatlarining demografik tadqiqotlarda qo'llanilishi masalasiga doir.	332
D.R. Norova.	P.A. Goncharovning "Buxoro zardo'zlik san'ati" asari muhim vizual manba sifatida.	335
TARIXSHUNOSLIK, ETNOLOGIYA VA MUZEYSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY TADQIQOT USULLARI		

M.Q. Rajapov.	Zamonaviy tadqiqotlarda Xorazmning arablar tomonidan bosib olinishi masalalari.	338
N.M. Xolmuminov.	Xorazmshohlar davlatining o'rganilish tarixi.	342
S.A. Namroyev.	XX asrning 20-40 yillar tadqiqotlarida Buxoro-Rossiya elchilik munosabatlarining yoritilishi.	347
M.M. Имашева Э. М. Оздамирова	Кризис Российско-хивинских отношений 1830-Х гг. и узбекское предпринимательство в Астрахани	353
V.B. Xaynazarov.	Rus tadqiqotchilarida Sharqiy Turkistonning siyosiy tarixini yoritilishi (XIX asr).	366
U.A. Usarov.	Toshkent vohasining yer-suv munosabatlari tarixshunosligiga oid ayrim mulohazalar (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari).	372
Д.А. Алимова.	Современные оценки советского периода Узбекистана: степень традиционализма и новые тенденции.	379
M.Ф. Адилова.	Движение «Худжум» в современной историографии России и стран СНГ.	390
A.D. Bababekov.	Turizm maskanlarini etnoqishloq konsepsiyasi asosida tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribani tahlil etish.	397
F.A. Adilov	O'zbek teatr san'atining rivojida arman ijodkorlarining o'rni	405
Sh.G. To'rayev.	B.X. Karmisheva tadqiqotlarida Surxon vohasi turkmanlarining etnik tavsifi.	408
O.T. Доспанов.	Пути формирования археологической коллекции и его роль в становлении музейного дела в Республике Каракалпакстан (на примере отдела археологии КК ГМИ им. И.Савицкого).	412
N.K. Davletbayeva.	Aqbasqur va Qizil Basqur: Qoraqalpoq xalqi o'tovi asosiy bezaklari.	417